

## VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR


2025- yilning yanvar-martida tashqi savdo aylanmasi 218,7 mln. AQSH dollari tashkil etdi, shundan 100,7 mln. AQSH dollarini eksport operatsiyalari, 118,0 mln. AQSH dollarini import operatsiyalari hissasiga to'g'ri keldi.

Tashqi savdo aylanmasining manfiy saldos -17,3 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

### Yanvar-mart oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (ming AQSH dollari)

	yanvar-mart		2024- yilning yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida
	2024- y.	2025- y.	
Tashqi savdo aylanmasi	292 537,9	218 764,3	74,8
shu jumladan:			
MDH davlatlari	37 139,2	43 593,7	117,4
boshqa davlatlar	255 398,7	175 170,6	68,6
Eksport	121 252,2	100 720,9	83,1
shu jumladan:			
MDH davlatlari	27 892,1	28 971,8	103,9
boshqa davlatlar	93 360,1	71 749,1	76,9
Import	171 285,7	118 043,4	68,9
shu jumladan:			
MDH davlatlari	9 247,1	14 621,9	158,1
boshqa davlatlar	162 038,6	103 421,5	63,8

**Yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida  
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**  
(umumiy hajmga nisbatan foiz, hisobida)



**Yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyati  
eksport-importi tarkibi**


	<i>Eksport va import operatsiyalari hajmi va ulushi</i>				<i>2024- yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2024- yil</i>		<i>2025- yil</i>		
	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	
<b>Eksport tarkibi</b>	<b>121,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,7</b>	<b>100,0</b>	<b>83,1</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12,2	10,0	15,5	15,4	126,8
Ichimlik va tamaki	0,4	0,1	0,5	0,1	103,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga uxshash materiallar	31,7	26,1	22,5	22,4	70,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	0,2	0,3	0,3	123,9

davomi

	<i>Eksport va import operatsiyalari hajmi va ulushi</i>				<b>2024- yil yanvar- martga nisbatan foiz hisobida</b>
	<i>2024- yil</i>		<i>2025- yil</i>		
	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	<i>mln. AQSH doll.</i>	<i>jamidagi ulushi, %</i>	
Sanoat tovarlari	74,7	61,5	57,6	57,2	77,1
Mashinalar va transport asbob uskunalar	0,7	0,6	0,2	0,2	32,3
Turli xil tayyor buyumlar	0,6	0,8	2,5	3,1	4,2 m.
Xizmatlar	0,8	0,7	1,6	1,3	153,2
<b>Import tarkibi</b>	<b>171,3</b>	<b>100,0</b>	<b>118,0</b>	<b>100,0</b>	<b>68,9</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	25,0	14,6	14,1	11,9	56,3
Yoqilg'idan tashqari ooziq- ovqat hom-ashyo	1,0	0,6	1,5	1,3	152,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga uxshash materiallar	2,0	1,2	3,2	2,7	163,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	-	-	0,5	0,4	-
Sanoat tovarlari	22,1	12,9	16,3	13,8	73,9
Mashinalar va transport asbob uskunalar	5,0	2,9	4,1	3,5	82,0
Turli xil tayyor buyumlar	116,1	67,7	78,2	66,3	66,4
Xizmatlar	0,1	0,1	0,1	0,1	145,4







## Tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi

(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



### QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASINING YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2025- yil yanvar-mart oylari, hajmi ming AQSH dollari, ulushi foizda)


<b>XXR</b>	<b>Rossiya</b>	<b>Qozog'iston</b>	<b>Turkiya</b>	<b>Pokiston</b>
TSA – 27338,6	TSA – 25294,2	TSA – 8486,4	TSA – 22142,1	TSA – 20144,9
Eksport: 2690,4 Import: 24648,3	Eksport: 19569,9 Import: 5724,3	Eksport: 2957,9 Import: 5528,5	Eksport: 12358,1 Import: 9784,0	Eksport: 11397,9 Import: 8746,9
 12,5%	 11,6%	 3,9%	 10,0%	9,2%
<b>Germaniya</b>	<b>BAA</b>	<b>AQSH</b>	<b>Afg'oniston</b>	<b>Eron</b>
TSA – 10135,8	TSA – 839,8	TSA – 21043,4	TSA – 8757,6	TSA – 3360,9
Eksport: 108,5 Import: 10027,3	Eksport: 775,6 Import: 64,2	Eksport: 17736,5 Import: 3306,9	Eksport: 6844,9 Import: 1912,7	Eksport: 3031,0 Import: 329,8
 4,6%	0,4%	9,6%	 4,0%	1,5%

Qashqadaryo viloyati, jahonning 64 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (12,5 %), AQSH (9,6 %), Turkiyada (10,1 %), Rossiyada (11,6 %), Yaponiya (10,0 %), Pokistonda (9,2 %), Afg'oniston (4,0 %), Germaniya (4,6 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.


Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA da Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, AQSH, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Niderlandiya va BAA davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.




Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 16 ta yirik hamkor davlatlar orasidan 32 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (2,6 mln AQSH dollari), AQSH (14,4 mln. AQSH dollari), Rossiya (13,8 mln. AQSH dollari), Birlashgan Arab Amirliigi (0,7 mln. AQSH dollari), Afgoniston (4,9 mln. AQSH dollari), Pokiston (2,7 mln. AQSH dollari), Misr (5,0 mln. AQSH dollari), Tojikiston (4,6 mln. AQSH dollari) ijobiy savdo balansi va salbiy tashqi savdo balansi 30 ta davlatda jumladan Yaponiya (21,9 mln. AQSH dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (22,0 mln. AQSH dollari), Litva (9,9 mln. AQSH dollari), Niderlandiya (8,1 %) davlatlar bilan saqlanib qolmoqda.

### **Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,** *jamiga nisbatan foizda*




## Tovar va xizmatlarning import tarkibi,

(jamiga nisbatan foizda)



2025- yilning yanvar-mart oylarida jami 10,3 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari 11 137,7 ming AQSH dollariga eksport qilindi (2024- yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ga) ko'paydi.

Shuningdek, 1,6 ming tonna dukkakli sabzavotlar 7 422,9 ming AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 2,9 martaga ko'paygan.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (41,2 %), Afgʻoniston (25,7 %), Qozogʻiston (15,5 %) va Rossiya Federatsiyasi (11,2 %), davlatlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan toʻplangan tajriba bilan ham bogʻliqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xoʻjaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratmoqda.